

**BUXORO XONLIGI QONUNCHILIGI VA URF ODATLARIDA AYOLLARNING
HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

Sangirova Diloram Xujamkulovna

Guliston davlat universiteti dotsenti

Artikova Dilnavoz Onarmat qizi

IV kurs bakalavr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677352>

Annotatsiya. Maqolada Islom ayollarga taqdim etgan asosiy huquqlarni — hayot huquqi, sha'nini himoya qilish, meros, mulkka egalik qilish va tasarruf etish, mahr olish, nafaqa, nikohga rozilik berish, ta'lim olish, ijtimoiy va diniy faoliyatlarda ishtirok etish huquqlarini atroflicha yoritib beriladi. Shu bilan birga, ayollarning oila va jamiyatdagi majburiyatlari — oilani saqlash, farzandlarni tarbiyalash, erga itoat va uy ishlarini boshqarish kabi jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, islom dini, sha'riat, mulkchilik, mahr, nikoh, meros, nafaqa, nasab.

Аннотация. В статье подробно освещаются основные права, предоставленные женщинам в Исламе — право на жизнь, защиту чести, наследование, владение и распоряжение имуществом, получение махра, обеспечение (нафака), согласие на брак, получение образования, участие в общественной и религиозной деятельности. Одновременно анализируются обязанности женщин в семье и обществе — сохранение семьи, воспитание детей, послушание мужу и ведение домашнего хозяйства.

Ключевые слова: Бухарское ханство, ислам, шариат, собственность, махр, никах (брак), наследство, нафака (обеспечение), насаб (происхождение).

Abstract. The article meticulously examines the fundamental rights granted to women in Islam, including the right to life, protection of honor, inheritance, ownership and disposal of property, reception of mahr (dowry), financial provision (nafaqa), consent to marriage, access to education, and participation in social and religious activities. Concurrently, it analyzes the duties of women within the family and society, such as preserving the family unit, raising children, obedience to the husband, and managing the household.

Keywords: Bukhara Khanate, Islam, Sharia, property, mahr (dowry), nikah (marriage), inheritance, nafaqa (financial provision), nasab (lineage/descent).

Islom dinining olamga taqdim qilgan ulkan xizmatlaridan biri insoniyat birligi va bashariyat tengligi haqidagi tasavvuridir. Avvallari insonlar turli xalqlar, qabilalar, irqlar va tabaqalarga bo'linar edi. Ulardan ba'zilar oliy, yuqori tabaqa, boshqalari past, quyi tabaqa hisoblanardi. Mazkur tabaqalar orasidagi tafovut juda ham ulkan bo'lib, ba'zan inson bilan hayvon, hur bilan qul va obid bilan ma'bud orasidagi tafovutga teng kelar edi. Bu yerda insoniyat birligi va bashariyat tengligi haqida hatto fikr ham yuritilmas edi. "Ey odamlar!

Sizlarning Robbingiz birdir. Otangiz birdir. Hammangiz Odam Atodansiz. Odam esa tuproqdandir. Allohning huzurida mukarramrog'ingiz taqvodorrog'ingizdir.

Arabning ajamdan taqvodan boshqa fazli yo'qdir", deyilgan¹. "Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko'plab erkagu ayollar taratgan Robbingizdan qo'rqinglar! U bilan o'zaro so'rovda bo'ladiganingiz Allohdan va qarindoshlik (aloqalarini uzish)dan qo'rqing. Albatta, Alloh ustingizdan kuzatib turuvchidir" ("Niso" surasi, 1-oyat)².

Buxoro xonligi qonunchiligi islom shariatiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra, ayollarning huquqlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan va ular quyidagi tartiblar orqali belgilab qo'yilgan:

1. Nikoh va oila huquqlari. Nikoh (nikoh shartnomasi) ayolning roziligiga asoslangan bo'lishi shart edi. Mehr: erkak kishi ayolga mehr berishi shart bo'lib, bu ayolning moddiy xavfsizligini ta'minlovchi huquqiy kafolat hisoblanardi. Ayol o'z eridan shariat asosida ayrim shartlarni talab qilishi mumkin edi (masalan, boshqa xotin olmaslik). Ajrashish (taloq) huquqi erkakda bo'lsa-da, ayol ham qoziga murojaat qilib ajrashishni so'rashi mumkin edi, agar zo'ravonlik yoki moddiy ta'minot bo'lmasa.

2. Meros huquqlari. Ayollar merosdan ulush olish huquqiga ega edilar: masalan, eri vafot etsa, ayol odatda 1/8 yoki 1/4 ulush olardi (shariat qoidalariga ko'ra). Qiz bolalar ham akasi bilan birga merosdan ulush olgan, lekin ulushi erkaklarning yarmiga teng bo'lgan (bu shariatdagi belgilash asosida).

3. Mol-mulk huquqi. Ayol o'z shaxsiy mol-mulkiga ega bo'lishi va uni xohishiga ko'ra tasarruf qilishi mumkin edi (sotish, hadya qilish, ijaraga berish). Mehr, meros yoki mehnat orqali topilgan mol-mulk uning shaxsiy mulki hisoblanardi³.

4. Sudda ishtirok etish huquqi. Ayollar qozixonaga chiqib, o'z shikoyatini yoki da'vo arizasini berish huquqiga ega edilar. Ular guvohlik ham berishi mumkin edi, lekin ayrim moliyaviy ishlar bo'yicha 2 ayol = 1 erkak guvohi deb hisoblangan (bu ham shariatdagi norma)⁴.

5. Ta'lim va diniy bilim. Shariatda ayollarga ham ilm olish farz qilingan: Buxoro xonligida ham bu muhim hisoblangan. Diniy oilalarda ayollar Qur'on o'qish, dinni o'rganish bilan shug'ullanganlar, ba'zi hollarda ayollar uchun alohida maktablar yoki otinoyilar bo'lgan.

Amaliyotda bu huquqlar ba'zan ijtimoiy omillar tufayli cheklangan bo'lishi mumkin, ammo shariat nazariyasida ayollarga yetarlicha huquq va imtiyozlar berilgan.

Eng avvalo, nikoh va oila huquqlari yuzasidan ko'riladigan masalalarga e'tibor qaratish lozim. Buxoro xonligi tarixini o'rgangan olimlar Anke fon Kyugelgen Markaziy Osiyo xonliklari tarixining legitimatsiyasi asosini genealogik asoslar bilan bog'laydi. Unga ko'ra, nikoh munosabatlari xon saylash va hokimiyatga olib kelish masalalarida muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.

"Abdullanoma" asarida keltirilishicha, "Chingizxon zamonida amirlar va (xonlarning) xotinlari ko'pincha shu qo'ng'iroq naslidan bo'lar edi. Bu toifa hamisha uning (Chingizxonning) farzandlari va urug'-avlodidan qiz olib, ularga qiz berar edilar.

¹ Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Ислом тарихи. Биринчи китоб.—Т.: Hilol-Nashr. 2022. —Б. 338

² www.ziyouz.com kutubxonasi. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. —B.51 (—484 b.)

³ Исмадова Н. Бухоро амирлигида аёл воқифала р (XIX а срининг иккинчи ярми- XX а с р бошла ри)—Т.: Sharq, 2020. — Б. 23

⁴ Исломда мерос тақсимоги. Нашрга тайёрловчи: И.Нуриллоҳ.—Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. —160 б.

Ularning mansablari shul ediki, (majlis va yig'ilish vaqtida) shahzodalardan yuqori o'ltirar edilar"⁵. Asriy davom etib kelgan an'analar keyingi davrlarga ham xos bo'lib qolgan edi.

Buxoro xonlari taxtiga kelgan hukmdorlar xon avlodidan bo'lishi shart qilib qo'yilgan.

Shu sabab hukmdorlikka da'vogar kishilar albatta, xon avlodi qizlariga uylanishi talab etilgan. Islom dinida quyilgan tenglik to'g'risidani talablardan biri – nasabda teng bo'lish degan tamoyil qo'l kelgan. Masalan, "Abdullanoma" keltirilishicha, "baxtli shahid xoqon Muhammadxon (Shayboniy) Movarounnahr mamlakatini istilo qilgandan, (Shayboniyxon) Sulton Mahmudxonning singlisi Davlat sultonxonini Temurxon uchun (xotinlikka) oldi; Sulton Mahmudxonning poklik burjidan tug'ilgan ikki yulduzi: biri Oysha sultonxonim bo'lib, Mo'g'ulxonim deb shuhrat toptan edi, uni (Shayboniyxon) o'ziga nikoh qilib oldi va (u)-xonning so'nggi kunlarigacha muhtaram rafiqasi bo'lib qoldi; ikkinchisi Qutlug'xonim bo'lib, (Shayboniyxon) uni shijoatnishon Jonibek sultonga nisbat buyurdi. Ul iffat sadafi, od ob gavhari (bo'lgan) qutlug' suratdan ul hazratning (Abdullaxonning) aziz otalari ikkinchi Iskandar Abulg'oziy Iskandar bahodirxon, tug'ildi". Manba ma'lumotlari, mag'lub bo'lgan mahalliy hukmdorlarning ayoliga g'olib hukmdorlarning o'ylanishi keyingi yangi sulola vakillarini tarix sahnasiga olib chiqqanligini ko'rsatadi⁶.

Amaliyotda bu huquqlar ba'zan ijtimoiy omillar tufayli cheklangan bo'lishi mumkin, ammo shariat nazariyasida ayollarga yetarlicha huquq va imtiyozlar berilgan⁷.

Eng avvalo, nikoh va oila huquqlari yuzasidan ko'riladigan masalalarga e'tibor qaratish lozim. Buxoro xonligi tarixini o'rgangan olimlar Anke fon Kyugelgen Markaziy Osiyo xonliklari tarixining legitimatsiyasi asosini genealogik asoslar bilan bog'laydi. Unga ko'ra, nikoh munosabatlari xon saylash va hokimiyatga olib kelish masalalarida muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.

"Abdullanoma" asarida keltirilishicha, "Chingizxon zamonida amirlar va (xonlarning) xotinlari ko'pincha shu qo'ng'iroq naslidan bo'lar edi. Bu toifa hamisha uning (Chingizxonning) farzandlari va urug'-avlodidan qiz olib, ularga qiz berar edilar. Ularning mansablari shul ediki, (majlis va yig'ilish vaqtida) shahzodalardan yuqori o'ltirar edilar"⁸. Asriy davom etib kelgan an'analar keyingi davrlarga ham xos bo'lib qolgan edi.

Buxoro xonlari taxtiga kelgan hukmdorlar xon avlodidan bo'lishi shart qilib qo'yilgan.

Shu sabab hukmdorlikka da'vogar kishilar albatta, xon avlodi qizlariga uylanishi talab etilgan. Islom dinida quyilgan tenglik to'g'risidani talablardan biri – nasabda teng bo'lish degan tamoyil qo'l kelgan. Masalan, "Abdullanoma" keltirilishicha, "baxtli shahid xoqon Muhammadxon (Shayboniy) Movarounnahr mamlakatini istilo qilgandan, (Shayboniyxon) Sulton Mahmudxonning singlisi Davlat sultonxonini Temurxon uchun (xotinlikka) oldi; Sulton Mahmudxonning poklik burjidan tug'ilgan ikki yulduzi: biri Oysha sultonxonim bo'lib,

⁵ Ҳофиз Таниш ал-Бухорий.Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси.; Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Ахмедов. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 44.

⁶ Sangirova D.X. Ashtarxoni xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. –İzmir. Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155

⁷ Аёлларга хос энг зарурий фикхий масалалар./Масъул муҳаррир Анвар қори Турсун. –Т.: Sano-standart, 2017. – 200 б.

⁸ Ҳофиз Таниш ал-Бухорий.Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси.; Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Ахмедов. –Т.: Шарқ, 1999. –Б. 74.

Mo'g'ulxonim deb shuhrat toptan edi, uni (Shayboniyxon) o'ziga nikoh qilib oldi va (u)-xonning so'nggi kunlarigacha muhtaram rafiqasi bo'lib qoldi; ikkinchisi Qutlug'xonim bo'lib, (Shayboniyxon) uni shijoatnishop Jonibek sultonga nisbat buyurdi. Ul iffat sadafi, od ob gavhari (bo'lgan) qutlug' suratdan ul hazratning (Abdullaxonning) aziz otalari ikkinchi Iskandar Abulg'oziy Iskandar bahodirxon, tug'ildi"⁹. Manba ma'lumotlari, mag'lub bo'lgan mahalliy hukmdorlarning ayoliga g'olib hukmdorlarning o'ylanishi keyingi yangi sulola vakillarini tarix sahnasiga olib chiqqanligini ko'rsatadi¹⁰.

Keyingi davr uchun ham bunga o'xshash jihatlar xos bo'lganligiga tarix guvoh. Masalan, Buxoro xonligiga kelgan ashtarxoniyar sulolasining dastlabki vakillari ham Buxoro xoni Iskandarning qiziga uylanishi orqali nikoh rishtalarini bog'lagan¹¹. Nasabda teng bo'lish orqali hokimiyat boshqaruvini o'z qo'llarida tutgan.

Yuqorida keltirilgan misollar islom dinida nikoh munosabatlari masalasidagi fikrlar tenglikdan ko'zlangan xususiyatlarni o'zida jam' etganligiga yana bir dalil bo'ladi. Islom dini talablaridan nasabda teng bo'lish, dindorlik jihatdan teng bo'lish, ilm, xunar va maslakda teng bo'lish, boylik jihatidan teng bo'lish, hurriyatda teng bo'lish singari shartlarning amaldagi isboti deyish mumkin.

Islom dinida ayollarning huquqlari bilan bir qatorda muayyan majburiyatlari ham muhim bor bo'lgan. Oila mustahkamligini ta'minlashda er bilan birgalikda mas'uliyatli bo'lish majburiyati yuklangan. Bu borada ularga quyilgan eng ma'suliyatli vazifa farzandlarga diniy va dunyoviy tarbiya berish bo'lgan. Shariatga xilof bo'lmagan masalalarda erga itoat etish, oilaning tinchligi va farovonligini saqlash borasida ayniqsa, hukmdorning ahli ayollari oldida ulkan majburiyat turgan. Bundan tashqari, oila mulkini asrash va uy ishlarini boshqarish singari kabilar ham ularning zimmasida bo'lgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, islom dini insoniyatga taqdim etgan eng muhim g'oyalardan biri — insoniy tenglik va jamiyatda adolatni qaror toptirishdir. Buxoro xonligidagi huquqiy tartiblar Islom shariatiga asoslangan bo'lib, ayollarga nisbatan adolatli munosabat va bir qator muhim huquqlarni ta'minlagan. Ular nikohda rozilik, mehr, merosdan ulush, shaxsiy mulk huquqi, qozixonada ishtirok etish va ta'lim olish kabi huquqlarga ega bo'lgan. Bu huquqlar ayollarning faqat oilada emas, balki jamiyatda ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ислам тарихи. Биринчи китоб.—Т.: Hilol-Nashr. 2022. —Б. 338.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. —B.51 (–484 b.)

⁹ Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) Алматы: Дрейн-Пресс, 2004. —С.37-45 (–516 стр)

¹⁰ Sangirova D.X., Artikova D. O. Buxoro xonligida ayollarning mulkka egalik masalalari. /European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS.167-173 b.

¹¹ Sangirova D.X. Ashtarxoniy xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. —İzmir. Ege Üniversitesi.2023. —S. 147-155; Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. *A look at the past*, (18), 27.

3. Исматова Н. Бухоро амирлигида аёл воқифала р (XIXа сринг иккинчи ярми- XX а ср бошла ри)–Т.: Sharq, 2020. – Б. 23
4. Ислонда мерос тақсимои. Нашрга тайёрловчи: И.Нуриллох.–Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. –160 б.
5. Sangirova D.X. Ashtarxoniё xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. –Izmir. Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155
6. Sangirova D.X. Ashtarxoniё xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. –Izmir. Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155
7. Аёлларга хос энг зарурий фикхий масалалар./Масъул муҳаррир Анвар кори Турсун. –Т.: Sano-standart, 2017. – 200 б.
8. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий.Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси.; Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Ахмедов. – Т.: Шарқ, 1999. –Б. 74.
9. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) Алматы: Дреик-Пресс, 2004. –С.37-45 (–516 стр)
10. Sangirova D.X., Artikova D. O. Buxoro xonligida ayollarning mulkka egalik masalalari. /European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS.167-173 b.
11. Sangirova D.X. Ashtarxoniё xonimlar tarix sahnasida. Tarih sahnesinde türk dünyasi kadini uluslararası sempozyumu. Bildiriler kitabı. – Izmir. Ege Üniversitesi. 2023. –S. 147-155; Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. *A look at the past*, (18), 27.